MIGRANT OILALARDA ER-XOTIN PSIXOLOGIK QOVUSHUVI SHAKLLANISHIDA ISHONCH VA EMOTSIONAL QO‘LLAB-QUVVATLANISHINING AHAMIYATI

Z.P.Komilova[1]

1. University of economics and pedagogy Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi https //

Mas'ul muallif: Komilova Zulfiyaxon Poziljonovna, University of economics and pedagogy Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi https //.

e-mail: komilovazulfiya73@gmail.com

Received: 12 Noyabr 2026
Accepted: 17 Noyabr 2026
Published: 22 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Komilova, Z. P. MIGRANT OILALARDA ER-XOTIN PSIXOLOGIK QOVUSHUVI SHAKLLANISHIDA ISHONCH VA EMOTSIONAL QO‘LLAB-QUVVATLANISHINING AHAMIYATI / Z. P. Komilova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 174–177.

Annotatsiya. Mazkur maqolada migrant oilalarda er-xotin psixologik qovushuvining shakllanishida ishonch va emotsional qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Migratsiya oilaviy munosabatlar mazmuniga, er-xotin o‘rtasidagi muloqot, hissiy yaqinlik, o‘zaro mas’uliyat va rollar taqsimotiga ta’sir etuvchi omil sifatida ko‘rib chiqildi. Jismoniy masofaning ortishi, kundalik muloqotning cheklanishi, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va yangi muhitga moslashish zarurati psixologik qovushuvning ayrim tarkibiy qismlarini o‘zgartirishi mumkinligi ko‘rsatib beriladi. Ishonch, empatik munosabat, emotsional qo‘llab-quvvatlash, konstruktiv muloqot va o‘zaro anglash migrant oilalarning psixologik barqarorligini ta’minlovchi muhim resurslar sifatida yoritiladi. Shuningdek, er-xotin psixologik qovushuvini mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: migrant oila, er-xotin munosabatlari, psixologik qovushuv, ishonch, emotsional qo‘llab-quvvatlash, oilaviy barqarorlik, muloqot, moslashuv, psixologik yaqinlik.

РОЛЬ ДОВЕРИЯ И ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ В ФОРМИРОВАНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СОВМЕСТИМОСТИ СУПРУГОВ В СЕМЬЯХ МИГРАНТОВ

Аннотация. В статье теоретически анализируется психологическое значение доверия и эмоциональной поддержки в формировании психологической сопряжённости супругов в мигрантских семьях. Миграция рассматривается как фактор, влияющий на содержание семейных отношений, взаимное общение супругов, эмоциональную близость, распределение ответственности и семейных ролей. Особое внимание уделяется психологическим трудностям, связанным с физической дистанцией между супругами, ограничением повседневного общения, социально-экономическими изменениями и необходимостью адаптации к новой среде. Доверие, эмпатия, эмоциональная поддержка, конструктивное общение и взаимопонимание раскрываются как значимые психологические ресурсы устойчивости мигрантской семьи. В статье также представлены социально-психологические рекомендации, направленные на укрепление психологической сопряжённости супругов в условиях миграции.

Ключевые слова: мигрантская семья, супружеские отношения, психологическая сопряжённость, доверие, эмоциональная поддержка, семейная устойчивость, общение, адаптация, психологическая близость.

THE ROLE OF TRUST AND EMOTIONAL SUPPORT IN THE FORMATION OF MARITAL PSYCHOLOGICAL COMPATIBILITY IN MIGRANT FAMILIES

Abstract. This article theoretically examines the psychological significance of trust and emotional support in the development of marital psychological cohesion in migrant families. Migration is considered a factor influencing family relationships, communication between spouses, emotional intimacy, mutual responsibility, and the distribution of family roles. Particular attention is paid to psychological challenges associated with physical separation, reduced daily communication, socioeconomic changes, and adaptation to a new social environment. Trust, empathy, emotional support, constructive communication, and mutual understanding are discussed as important psychological resources contributing to migrant family resilience. The article also presents social and psychological recommendations aimed at strengthening marital psychological cohesion under migration conditions.

Keywords: migrant family, marital relationships, psychological cohesion, trust, emotional support, family resilience, communication, adaptation, emotional intimacy.

Kirish. Zamonaviy globallashuv jarayonlari, mehnat migratsiyasining kengayishi, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta’sirida oilalarning turmush tarzida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Migratsiya insonning nafaqat geografik makonini, balki uning ijtimoiy munosabatlari, psixologik holati, oilaviy qadriyatlari va kundalik hayot faoliyatini ham o‘zgartiruvchi murakkab jarayondir. Ayniqsa, mehnat migratsiyasi tufayli er-xotinning

uzoq muddat bir-biridan alohida yashashi oilaviy munosabatlarning psixologik mazmuniga, o‘zaro yaqinlik va qovushuv darajasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.Oilani jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida o‘rganishda er-xotin munosabatlarining psixologik xususiyatlari muhim o‘rin tutadi. Oilaviy munosabatlarning barqarorligi faqat moddiy ta’minot yoki birgalikda yashash bilan belgilanmaydi. Unda o‘zaro ishonch, hissiy yaqinlik, bir-birini tushunish, qadriyatlar mushtarakligi, mas’uliyatni his etish va psixologik qo‘llab-quvvatlash kabi omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi [9; 10].Migratsiya sharoitida ushbu omillarning ahamiyati yanada ortadi. Chunki jismoniy masofaning mavjudligi er-xotinning kundalik hayotdagi bevosita muloqotini cheklashi, oilaviy vazifalar taqsimotini o‘zgartirishi, ayrim hollarda hissiy ehtiyojlarning qondirilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu bilan birga, migratsiya oilaning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, kelajak istiqbollarini yaxshilash va oilaviy farovonlikni ta’minlashga xizmat qilishi ham mumkin. Demak, migratsiyaning oilaviy munosabatlarga ta’siri bir tomonlama emas, balki vaziyat, shaxsiy xususiyatlar va oilaning psixologik resurslariga bog‘liq murakkab hodisadir [7; 8].

Migrant oilalarda er-xotin psixologik qovushuvini o‘rganish ushbu munosabatlarning ichki mexanizmlarini aniqlash, psixologik xavf va himoya omillarini farqlash, oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi vositalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, er-xotin o‘rtasidagi ishonch va emotsional qo‘llab-quvvatlashning psixologik qovushuv shakllanishidagi o‘rnini tahlil qilish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.Tadqiqotg metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini oilaviy munosabatlarni tizimli tahlil qilishga oid yondashuv, ijtimoiy-psixologik yondashuv, shaxslararo munosabatlar va bog‘lanish (attachment) nazariyalari [1], U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi [2], oilaviy tizim konsepsiyalari [4; 5] hamda migratsiya sharoitida oilaning stressga moslashuvi va psixologik barqarorligiga oid nazariy qarashlar [3; 7; 8] tashkil etadi.Natija va muhokama. Migratsiya oilaviy tizimda muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy omil hisoblanadi. Er yoki xotinning mehnat migratsiyasiga ketishi oilada kundalik munosabatlar shakli, vazifalar taqsimoti, qaror qabul qilish mexanizmlari va hissiy aloqalar tizimining qayta tashkil etilishiga olib kelishi mumkin. Bunda oilaning avvalgi munosabatlar modeli yangi sharoitga moslashishga majbur bo‘ladi.Oilaviy tizim nuqtayi nazaridan [4], bir a’zoning uzoqlashuvi qolgan oila a’zolarining funksional va psixologik holatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Oiladagi vazifalarni qayta taqsimlash, farzandlar tarbiyasi bilan bog‘liq mas’uliyatning bir tomon zimmasiga ko‘proq yuklanishi, moliyaviy qarorlarning masofadan qabul qilinishi va kundalik muammolarni mustaqil hal etish zarurati yuzaga kelishi mumkin.Migratsiya sharoitida er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim psixologik omillardan biri - kundalik muloqotning o‘zgarishidir. Birgalikda yashash davrida yuzaga keladigan spontan suhbatlar, hissiy reaksiyalarni bevosita kuzatish, birgalikdagi faoliyat va kundalik hayotning mayda, ammo muhim jihatlari masofaviy munosabatlarda kamayishi mumkin. Natijada o‘zaro anglash jarayoni faqat telefon, internet yoki boshqa kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshadigan muloqotga ko‘proq bog‘liq bo‘lib qoladi.

Biroq masofaviy muloqotning cheklanganligi o‘z-o‘zidan oilaviy qovushuvning buzilishini anglatmaydi. Agar er-xotin o‘rtasida o‘zaro ishonch, hissiy ochiqlik, munosabatlarga mas’uliyatli yondashuv va muntazam muloqot mavjud bo‘lsa, jismoniy masofa sharoitida ham psixologik yaqinlik saqlanishi mumkin. Shu sababli migratsiyaning oilaviy munosabatlarga ta’sirini baholashda faqat masofa yoki ayriliq davomiyligini emas, balki munosabatlarning psixologik mazmunini ham hisobga olish zarur.

Migratsiya jarayonida yuzaga keladigan stress omillari ham er-xotin munosabatlarining dinamikasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Yangi ijtimoiy muhit, til va madaniy to‘siqlar, ish bilan bog‘liq zo‘riqish, iqtisodiy beqarorlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi migrantning psixologik holatiga ta’sir etadi. Ushbu holatlar uning oilaviy muloqotga jalb etilishi, emotsional javob qaytarishi va turmush o‘rtog‘ining ehtiyojlarini anglash imkoniyatlariga ta’sir qilishi ehtimoli mavjud.

Shu bilan birga, uyda qolgan turmush o‘rtog‘ining ham psixologik holati o‘zgarishi mumkin. Kundalik mas’uliyatning ortishi, yolg‘izlik hissi, turmush o‘rtog‘ining xavfsizligi va kelajagi haqidagi xavotir, oilaviy qarorlarni mustaqil qabul qilish zarurati psixologik zo‘riqish manbalariga aylanishi mumkin. P. Boss ta’kidlaganidek, oila a’zosining jismonan yo‘q, ammo psixologik jihatdan oilada “mavjud” bo‘lishi oilaviy chegaralarning noaniqligini va qo‘shimcha stressni yuzaga keltiradi [3]. Bunday vaziyatlarda o‘zaro ishonch va emotsional qo‘llab-quvvatlash oilaviy munosabatlar muvozanatini saqlashga yordam beruvchi muhim resurslardir.

Psixologik qovushuv er-xotin munosabatlarida o‘zaro anglash, hissiy yaqinlik, qadriyatlar uyg‘unligi, muloqot samaradorligi, munosabatlarga moslashish va birgalikdagi hayot faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq murakkab psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. D. Olsonning sirkumpleks modelida jipslik, moslashuvchanlik va muloqot er-xotin hamda oilaviy tizimning markaziy o‘lchovlari sifatida ajratiladi [5].

Psixologik qovushuvni oddiy o‘xshashlik yoki xarakterlarning bir xil bo‘lishi bilan izohlash to‘g‘ri emas. Er-xotin turli temperament, shaxsiy xususiyatlar, qiziqishlar va hayotiy tajribaga ega bo‘lishiga qaramay, bir-birining individualligini qabul qilishi, kelishmovchiliklarni konstruktiv hal etishi va munosabatlarda o‘zaro muvozanatni saqlashi mumkin.

Migrant oilalar sharoitida psixologik qovushuv quyidagi tarkibiy jihatlar orqali namoyon bo‘lishi mumkin:

Emotsional-affektiv komponent - er-xotinning bir-biriga nisbatan hissiy munosabati, mehr, empatiya, hissiy yaqinlik, ruhiy dalda va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash darajasini ifodalaydi.

Kommunikativ komponent - o‘z fikri va hissiyotlarini ochiq ifodalash, turmush o‘rtog‘ini tinglash, muloqotdagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish, nizolarni konstruktiv muhokama qilish qobiliyatini aks ettiradi.

Ishonch komponenti - munosabatlarda samimiylik, o‘zaro ishonish, va’dalarga sodiqlik, turmush o‘rtog‘ining xatti-

harakatlarini ijobiy anglash va munosabatlarning barqarorligiga ishonch bilan bog‘liq.

Qadriyat-motivatsion komponent - oilaviy maqsadlar, hayotiy qadriyatlar, farzand tarbiyasi, moddiy va ma’naviy ehtiyojlar, kelajak rejalari bo‘yicha o‘zaro anglashuv va mushtaraklikni ifodalaydi.

Xulqiy-rolli komponent - oilaviy vazifalarni taqsimlash, o‘zaro mas’uliyatni his etish, rollarning o‘zgarishiga moslashish va turmush o‘rtog‘ining ehtiyojlarini hisobga olgan holda xatti-harakatlarni muvofiqlashtirish bilan tavsiflanadi.

Adaptiv komponent - migratsiya bilan bog‘liq o‘zgarishlar, stress, jismoniy masofa, yangi ijtimoiy sharoit va oilaviy vaziyatlarga moslashish, munosabatlarni saqlash va tiklash qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Mazkur komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, birining rivojlanishi yoki zaiflashishi boshqa tarkibiy jihatlarning namoyon bo‘lishiga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, kommunikativ qovushuvning yuqori darajasi turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qilishi, hissiy qo‘llab-quvvatlash esa nizolarni bartaraf etishda adaptiv imkoniyatlarni oshirishi mumkin.

Ishonch er-xotin munosabatlarining barqarorligini ta’minlovchi asosiy psixologik omillardan biridir. U turmush o‘rtoqlarning bir-biriga nisbatan samimiyligi, munosabatlarda xavfsizlik hissi, o‘zaro mas’uliyat va kelajak istiqbollariga ijobiy munosabatda namoyon bo‘ladi. Bog‘lanish nazariyasiga ko‘ra, yaqin insonga ishonch va undan “xavfsiz tayanch” sifatida foydalana olish shaxs emotsional barqarorligining muhim sharti hisoblanadi [1].

Migratsiya sharoitida ishonchning ahamiyati yanada ortadi, chunki er-xotin kundalik faoliyatni bevosita kuzatish, yuzma-yuz muloqot qilish va turli vaziyatlarda bir-birining xatti-harakatlariga tabiiy ravishda munosabat bildirish imkoniyatidan qisman mahrum bo‘ladi. Bunday sharoitda munosabatlarning mustahkamligi ko‘p jihatdan o‘zaro ishonch, kelishuvlar, muloqotning ochiqligi va hissiy barqarorlikka bog‘liq.

Ishonchning zaiflashishi turmush o‘rtoqlar o‘rtasida shubha, xavotir, noto‘g‘ri talqin, hissiy uzoqlashish va nizolarning kuchayishiga zamin yaratishi mumkin. Masalan, muloqotning vaqtincha uzilishi yoki javobning kechikishi turli sabablarga ko‘ra yuzaga kelgan bo‘lsa-da, ishonch darajasi past munosabatlarda bu holat salbiy ma’noda talqin qilinishi ehtimoli mavjud.

Aksincha, o‘zaro ishonch yuqori bo‘lgan oilalarda muloqotdagi ayrim uzilishlar yoki vaqtinchalik qiyinchiliklar munosabatlarning barqarorligiga jiddiy tahdid sifatida qabul qilinmasligi mumkin. Turmush o‘rtoqlar bir-birining sharoitini hisobga olishi, vaziyatni tushunishga intilishi va yuzaga kelgan muammolarni ochiq muhokama qilishi munosabatlarning psixologik barqarorligini ta’minlaydi.

Ishonchning shakllanishida quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi samimiy va ochiq muloqot;

va’dalar va kelishuvlarga amal qilish;

o‘zaro hurmat va mas’uliyat;

oilaviy qarorlarni muhokama qilishda teng ishtirok;

turmush o‘rtog‘ining hissiy ehtiyojlarini anglash;

kelajak rejalari va maqsadlarining aniqligi;

nizolarni o‘zaro ayblashsiz hal etish.

Demak, migrant oilalarda ishonch faqat shaxsiy xususiyat emas, balki er-xotin munosabatlarida muntazam ravishda shakllantiriladigan va mustahkamlanadigan psixologik munosabatdir.

Emotsional qo‘llab-quvvatlash shaxsning hissiy ehtiyojlarini qondirish, stress va zo‘riqish holatlarida ruhiy dalda berish, uning kechinmalarini tushunish va qabul qilish orqali namoyon bo‘ladi. Oilaviy munosabatlarda emotsional qo‘llab-quvvatlash turmush o‘rtoqlarning o‘zini qadrlangan, tushunilgan va munosabatlarda muhim shaxs sifatida his qilishiga yordam beradi.

Migratsiya sharoitida emotsional qo‘llab-quvvatlash bir necha shaklda namoyon bo‘lishi mumkin. Birinchidan, turmush o‘rtog‘ining kechinmalarini tinglash va ularga befarq bo‘lmaslik. Ikkinchidan, qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan sherigiga dalda berish va uning imkoniyatlariga ishonch bildirish. Uchinchidan, kundalik muloqotda mehr, e’tibor va hissiy yaqinlikni ifodalash. To‘rtinchidan, muammolarni faqat moddiy yordam bilan emas, balki psixologik jihatdan ham birgalikda hal qilishga intilish.

Emotsional qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi turmush o‘rtoqlarda yolg‘izlik, tushunilmaslik, hissiy begonalashuv va munosabatlarga nisbatan qoniqmaslik hissini kuchaytirishi mumkin. Ayniqsa, uyda qolgan turmush o‘rtog‘i kundalik mas’uliyat va farzandlar tarbiyasi bilan bog‘liq vazifalarni bajarayotgan sharoitda uning hissiy ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirish munosabatlarda zo‘riqishni yuzaga keltirishi mumkin.

Shu sababli emotsional qo‘llab-quvvatlash migrant oilalarda er-xotin psixologik qovushuvini mustahkamlovchi muhim mexanizm sifatida qaralishi lozim. U turmush o‘rtoqlar o‘rtasida hissiy yaqinlikni saqlash, o‘zaro tushunishni kuchaytirish va migratsiya bilan bog‘liq qiyinchiliklarni birgalikda yengib o‘tish imkoniyatini oshiradi.

Migrant oilalarda ishonch, emotsional qo‘llab-quvvatlash va muloqot alohida-alohida mavjud bo‘ladigan omillar emas, balki o‘zaro ta’sir qiluvchi psixologik mexanizmlar tizimini tashkil etadi. Muloqot orqali er-xotin bir-birining hissiy holati, ehtiyojlari, xavotirlari va hayotiy maqsadlarini anglaydi. Ushbu anglash o‘zaro ishonchning shakllanishiga yordam beradi. Ishonch mavjud bo‘lgan munosabatlarda esa emotsional qo‘llab-quvvatlashni qabul qilish va ko‘rsatish imkoniyatlari kengayadi.

Masofaviy muloqotning samaradorligi faqat uning chastotasi bilan belgilanmaydi. Suhbatning mazmuni, hissiy boyligi, o‘zaro tinglash, samimiylik va turmush o‘rtog‘ining kechinmalariga munosabat bildirish muhim ahamiyatga ega.

Muntazam, ammo yuzaki muloqot hissiy yaqinlikni to‘liq ta’minlamasligi mumkin. Shu bois muloqotning psixologik sifati alohida e’tiborga olinishi zarur.

Er-xotin munosabatlarida konstruktiv muloqot quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: o‘z fikrini ayblovsiz ifodalash, suhbatdoshni tinglash, kelishmovchiliklarni o‘zaro hurmat asosida muhokama qilish, hissiy reaksiyalarni boshqarish va muammoni birgalikda hal etishga intilish [6].

Migrant oilalarda bunday muloqot usullarini rivojlantirish turmush o‘rtoqlarning psixologik qovushuvini saqlash va mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, oilaviy qarorlar, farzandlar tarbiyasi, moddiy masalalar va kelajak rejalarini masofadan turib muhokama qilishda kommunikativ kompetensiyalar muhim rol o‘ynaydi.

Migrant oilalarda er-xotin psixologik qovushuvini mustahkamlash uchun munosabatlarning mavjud holatini hisobga olgan holda tizimli yondashuv zarur. Ushbu jarayon faqat turmush o‘rtoqlarning alohida harakatlari bilan cheklanmay, o‘zaro hamkorlik, psixologik savodxonlik va oilaviy resurslarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Quyidagi tavsiyalar muhim hisoblanadi:

1. Muntazam va mazmunli muloqotni yo‘lga qo‘yish. Turmush o‘rtoqlar muloqot uchun qulay vaqtni belgilashi, faqat kundalik muammolarni emas, balki hissiy holat, kechinmalar, orzular va kelajak rejalarini ham muhokama qilishi lozim.

2. O‘zaro ishonchni mustahkamlash. Oilaviy kelishuvlarga amal qilish, samimiylik, ochiqlik, mas’uliyat va turmush o‘rtog‘ining shaxsiy chegaralarini hurmat qilish ishonchning barqarorligini ta’minlaydi.

3. Emotsional qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Turmush o‘rtoqlar bir-birining hissiy ehtiyojlarini anglash, empatik tinglash, ruhiy dalda berish va kechinmalarni qadrlashga o‘rganishlari zarur.

4. Oilaviy maqsadlarni birgalikda belgilash. Migratsiyaning maqsadi, davomiyligi, iqtisodiy rejalari, farzandlar tarbiyasi va kelajakdagi yashash sharoitlari bo‘yicha kelishuvlar er-xotinning umumiy maqsadlarini mustahkamlaydi.

5. Oilaviy rollar va mas’uliyatni muvofiqlashtirish. Migratsiya sharoitida oilaviy vazifalar o‘zgarishi mumkin. Ushbu o‘zgarishlarni o‘zaro muhokama qilish va turmush o‘rtoqlarning imkoniyatlarini hisobga olish munosabatlardagi adolat hissini saqlashga yordam beradi.

6. Nizolarni konstruktiv hal qilish. O‘zaro ayblash, tahdid, sukut orqali jazolash va keskin muloqot o‘rniga muammoni aniqlash, hissiyotlarni boshqarish va yechimlarni birgalikda izlashga yo‘naltirilgan usullardan foydalanish maqsadga muvofiq [6].

7. Psixologik maslahat va treninglardan foydalanish. Zarur hollarda migrant oilalarga oilaviy maslahat, psixologik trening, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va nizolarni boshqarish bo‘yicha psixologik yordam ko‘rsatish mumkin.

Mazkur tavsiyalar migrant oilalarda psixologik qovushuvni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularni qo‘llash oilaning individual xususiyatlari, migratsiya sharoiti, er-xotin munosabatlarining mavjud holati va psixologik ehtiyojlarini hisobga olishni talab etadi.

Xulosa. Migrant oilalarda er-xotin psixologik qovushuvining shakllanishi va mustahkamlanishi murakkab, ko‘p omilli psixologik jarayon bo‘lib, unda ishonch, emotsional qo‘llab-quvvatlash, kommunikativ munosabatlar, qadriyatlar mushtarakligi va oilaviy rollarning muvofiqlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Migratsiya er-xotin munosabatlarida jismoniy masofa, kundalik muloqotning o‘zgarishi, ijtimoiy-madaniy moslashuv va oilaviy mas’uliyatning qayta taqsimlanishi kabi omillarni yuzaga keltirishi mumkin. Biroq ushbu omillarning oilaviy munosabatlarga ta’siri turmush o‘rtoqlarning shaxsiy xususiyatlari, oilaviy resurslari va psixologik munosabatlar tizimiga bog‘liq.

Ishonch migrant oilalarda psixologik xavfsizlik va munosabatlarning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim omil bo‘lsa, emotsional qo‘llab-quvvatlash turmush o‘rtoqlarning hissiy ehtiyojlarini qondirish, o‘zaro yaqinlik va tushunishni saqlash imkonini beradi. Mazmunli muloqot esa ushbu mexanizmlarning o‘zaro ta’sirini ta’minlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, migrant oilalarda er-xotin psixologik qovushuvini mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik ishlar ishonchni rivojlantirish, emotsional qo‘llab-quvvatlash madaniyatini shakllantirish, kommunikativ kompetensiyalarni oshirish va oilaviy maqsadlarni muvofiqlashtirishga yo‘naltirilishi lozim. Ushbu yo‘nalishdagi keyingi empirik tadqiqotlar migrant oilalarning psixologik barqarorligini ta’minlovchi amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Bowlby J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. – New York: Basic Books, 1969.

[2] Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.

[3] Boss P. Family Stress Management: A Contextual Approach. - Thousand Oaks: Sage Publications, 2002.

[4] Minuchin S. Families and Family Therapy. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1974.

[5] Olson D. H. Circumplex Model of Marital and Family Systems // Journal of Family Therapy. - 2000. - Vol. 22, No. 2. - P. 144-167.

[6] Gottman J. M., Silver N. The Seven Principles for Making Marriage Work. - New York: Crown Publishers, 1999.

[7] Falicov C. J. Latino Families in Therapy: A Guide to Multicultural Practice. - New York: Guilford Press, 2014.

[8] Walsh F. Strengthening Family Resilience. - New York: Guilford Press, 2016.

[9] Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. - Toshkent: Sharq, 2000.